BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI





# BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2021- YIL YANVAR-NOYABR***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



# Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17371,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 98,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,4 % ni tashkil etdi.

**2,5%** — **B** — Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**94,4%** — **C** — Ishlab chiqaradigan sanoat

**2,3%** — **D** — Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**0,8%** — **E** — Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr |
|---|---|---|
| B | 8,8 % | 114,5 % |
| C | 119,4 % | 95,1% |
| D | 128,7 % | 101,2 % |
| E | 73,5% | 99,5 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,9 % ga hamda suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning – 0,5 % ga pasayishi kuzatildi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 434,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oltingugutr, t.** | 1073,0 | 1426,0 | 353,0 |
| **Shag’al, t.** | 35711,0 | 14000,0 | -21711,0 |




## Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, ming so‘m** | 125024537,0 | 143234757,0 | 18210220,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16403,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,4% ini tashkil etdi.*

**2020-yil yanvar-noyabr** — **95,5 %**

**2021-yil yanvar-noyabr** — **94,4 %**

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 1,7 % (1,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 51,8 % (58,5 %) va quyi texnologiyalisi – 46,4 % (39,6 %)ni tashkil etdi.*



*Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 39,2 % (2020- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 64,8 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,9 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 113,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,5 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 108,3 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 6,4 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 136,5 %) ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

**Dizel yoqilg‘isi**




**Avtomobil benzini**




**Mazut**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**





















*2021- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 793,1ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,8 % ga o'sgan), 21,2 ming tonna kalava ip (7,8 % ga), 2726,8 ming litr aroq mahsulotlari (2,2 m) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Mazut, ming t.** | 106,3 | 74,5 | -31,8 |
| **O'simlik yog'i (tozalangan), t.** | 10479,4 | 9602,7 | -876,7 |
| **Paxta tolasi, t.** | 85409,6 | 83931,0 | -1478,6 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.** | 83297,2 | 78027,3 | -5269,9 |
| **Paxta chigiti, t.** | 130369,8 | 127319,0 | -3050,8 |
| **Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.** | 20626,8 | 28113,1 | 7486,3 |

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 93,7 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga koʻra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % gacha koʻtarilib, fizik hajm indeksi esa, 13,1 % ga oʻsdi va ishlab chiqarish hajmi 72,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 120,6 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 36,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1111,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 114,1 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,5 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 3209,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*



## Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish- ning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 172,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa,2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakun-lariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 122,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 119,2 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 13,6 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 4151,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradi-gan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 112,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 %, fizik hajm indeksi 133,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 224,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 79,0 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 56,4% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 383,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

2019- yil 122,8 %

2020- yil 79,0 %

2021- yil 56,4 %

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2019- yil 102,4 %

2020- yil 126,2 %

2021- yil 64,8 %

*2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 47,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 126,2 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 39,2 % ni, fizik hajm indeksi 64,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6811,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Yozilgan materiallarni nashr qilish ва aks ettirish

*2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, yozilgan materiallarni nashr qilish ва aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 143,0 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 233,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

2019- yil 129,1%

2020- yil 143,0%

2021- yil 233,9 %

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 393,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,3 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,2 % ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 5,7 | 6,7 | 1,0 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 688,9 | 688,6 | -0,3 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 139,9 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.




## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mln.so‘m*** | 8181,6 | 16038,6 | 7857,0 |
| **Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mln.so‘m*** | 460,7 | 448,8 | -11,9 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 96,0 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 2,6 % ga pasayishi kuzatildi.

# Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7549,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 126,1% ni, uning jami sanoatdagi ulushi 43,5 % ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

**2020-yil yanvar-noyabr** — **38,8%**

**2021-yil yanvar-noyabr** — **37,8%**

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2020-yil yanvar-noyabr** — **61,2%**

**2021-yil yanvar-noyabr** — **62,2%**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,6 % (2020- yil yanvar-noyabr oylarida 2,1 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahri to'g'ri kelib 20,0 % ni va Qorovulbozor tumaniga 19,5 % ni, G'ijduvon tumani 11,2 % ni hamda Jondor tumani 8,5 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (126,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon (177,4 %), Peshku (159,8 %), Jondor (141,5 %), Olot (140,1 %) hamda Romitan (139,3 %) tumanlarda qayd etildi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahri to‘g‘ri kelib, 20,0 % shuningdek, Qorovulbozor tumaniga 19,5 %, G‘ijduvon 11,2 % ni, Jondor 8,5 % tumanlari tashkil etdi.*




**4593,2** mlrd. so‘m
*2019- yil yanvar- noyabr*

**5774,2** mlrd. so‘m
*2020- yil yanvar- noyabr*

**7549,6** mlrd. so‘m
*2021- yil yanvar- noyabr*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2019-yil** **108,0 %**

**2020- yil** **109,6%**

**2021- yil** **126,1%**

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to‘g‘ri kelib, 30,5 % shuningdek, Buxoro shahri 20,0 %, G‘ijduvon 10,8 % ni, Kogon tumani 6,1 % ni tashkil etdi.*

**2920,2** mlrd. so‘m
*2019- yil yanvar- noyabr*

**3535,5** mlrd. so‘m
*2020- yil yanvar- noyabr*

**4698,1** mlrd. so‘m
*2021- yil yanvar- noyabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2019- yil 110,7 %

02 2020- yil 109,7 %

04 2021- yil 127,9 %



## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to‘g‘ri kelib, 20,0 % ni, shuningdek, Jondor tumani 14,8 % ni, G‘ijduvon tumani esa 11,7 % ni tashkil etdi.*




**1673,0** mlrd. so‘m
*2019- yil yanvar- noyabr*

**2238,7** mlrd. so‘m
*2020- yil yanvar- noyabr*

**2851,5** mlrd. so‘m
*2021- yil yanvar- noyabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi



## Buxoro vilotati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to‘g‘ri kelib, 40,5 % ni, shuningdek, Buxoro shahriga 13,5 % ni, G‘ijduvon tumani esa 7,9 % ni tashkil etdi.*

### Buxoro vilotati

**2019- yil** — 13241,8 mlrd. so‘m

**2020- yil** — 15422,4 mlrd. so‘m

**2021- yil** — 17371,6 mlrd. so‘m



**2019- yil** — 109,3 %

**2020- yil** — 100,3 %

**2021- yil** — 98,6 %



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (376 769,2 ming so‘m), Kogon tumani (12 596,9 ming so‘m) hamda Kogon shahrida (12 577,2 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (8 873,6 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Buxoro vilotati

2019- yil — 6 949,6 ming so‘m

2020- yil — 7 983,4 ming so‘m

2021- yil — 8 873,6 ming so‘m



01 — 2019- yil — 111,0 %

02 — 2020- yil — 98,9 %

04 — 2021- yil — 97,3 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3856,4 ming so‘m bo‘lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 78 807,9 ming so‘mni, Kogon tumanida – 6 727,6 ming so‘mni, Buxoro shahrida – 5 348,8 ming so‘mni tashkil etdi.*

### Buxoro vilotati

**2019- yil** — 2 410,6 ming so‘m

**2020- yil** — 2 989,0 ming so‘m

**2021- yil** — 3 856,4 ming so‘m



**2019- yil** — 106,3 %

**2020- yil** — 108,1 %

**2021- yil** — 124,4 %

| | o‘sish sur’ati | ming. so‘m |
|---|---|---|
| Olot | 138,4 | 2083,7 |
| Buxoro | 108,3 | 2180,3 |
| Vobkent | 106,1 | 2418,8 |
| G'ijduvon | 116,4 | 2731,7 |
| Kogon | 174,1 | 6727,6 |
| Qorako‘l | 99,7 | 1730,3 |
| Qorovulbozor | 105,6 | 78807,9 |
| Peshku | 157,1 | 2174,4 |
| Romitan | 136,8 | 2649,5 |
| Jondor | 139,4 | 3610,8 |
| Shofirkon | 135,6 | 1996,3 |
| Buxoro sh. | 137,2 | 5348,8 |
| Kogon sh. | 123,0 | 5148,9 |

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda viloyatda 4861 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1283 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,4 % i) Buxoro shahriga, 620 tasi (12,8 % i) G‘ijduvon tumaniga, 372 tasi (7,7 % i) Kogon tumaniga, 368 tasi (7,6 % i) Buxoro tumaniga, 344 tasi (7,1 % i) Romitan tumaniga, 342 tasi (7,0 % i) Jondor tumaniga, 303 tasi (6,2 % i) Shofirkon tumaniga to‘gri kelmoqda.*




### Jami yangi tashkil etilgan

**2019-yil** — 1 194 dona

**2020- yil** — 1 010 dona

**2021- yil** — 1 093 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2019- yil** — 3 558 dona

**2020- yil** — 4 306 dona

**2021- yil** — 4 861 dona